



**SPORT SOHASIDAGI KRIMINAL SUBMADANIYATGA
QARSHI KURASHISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI HAMDA
TA'LIM VA SPORT TASHKILOTLARINING HAMKORLIGI
MASALALARI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Ahadov Sobirjon Murodovich*

Annotatsiya: Maqolada jangovar sport muhitida kriminal submadaniyat tarqalishining oldini olish hamda yoshlarning uyushgan jinoiy guruhlar ta'siriga tushib qolishiga qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining ta'lim va sport tashkilotlari bilan hamkorligi masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda faqatgina repressiv va reaktiv choralar bilan cheklanmay, barvaqt profilaktika modeliga o'tish, murabbiylarni kriminologik filtrdan o'tkazish va yoshlar ruhiyatini muntazam psixologik monitoring qilish zarurati asoslangan. Muallif tomonidan idoralararo hamkorlikning uch bosqichli tizimi hamda tarbiyasi og'ir o'smirlarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sport muhiti, kriminal submadaniyat, ichki ishlar organlari, ta'lim tashkilotlari, sport muassasalari, idoralararo hamkorlik, jangovar sport turlari, uyushgan jinoiy guruhlar, barvaqt profilaktika, destruktiv xulq-atvor, kriminologik filtr, psixologik monitoring, yoshlar jinoyatchiligi, kriminal mafkura, ijtimoiy loyihalar.

Сотскатель Академии МВД Республики Узбекистан,

Ахадов Собиржон Муродович



ВОПРОСЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ, ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ КРИМИНАЛЬНОЙ СУБКУЛЬТУРЕ В СФЕРЕ СПОРТА

Аннотация: В статье анализируются вопросы взаимодействия органов внутренних дел с образовательными и спортивными организациями в предупреждении распространения криминальной субкультуры в среде боевых видов спорта и противодействии вовлечению молодежи в организованные преступные группы. В исследовании обоснована необходимость перехода к модели ранней профилактики, не ограничивающейся только репрессивными и реактивными мерами, проведения криминологической фильтрации тренеров и регулярного психологического мониторинга молодежи. Автором разработаны практические предложения и рекомендации по внедрению трехэтапной системы межведомственного взаимодействия, а также реализации совместных социальных проектов, направленных на социальную адаптацию «трудных» подростков.

Ключевые слова: спортивная среда, криминальная субкультура, органы внутренних дел, образовательные организации, спортивные учреждения, межведомственное взаимодействие, боевые виды спорта, организованные преступные группы, ранняя профилактика, деструктивное поведение, криминологический фильтр, психологический мониторинг, молодежная преступность, криминальная идеология, социальные проекты.

Independent Researcher of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Akhadov Sobirjon Murodovich



ISSUES OF COOPERATION BETWEEN INTERNAL AFFAIRS BODIES AND EDUCATIONAL AND SPORTS ORGANIZATIONS IN COUNTERING CRIMINAL SUBCULTURE IN THE FIELD OF SPORTS

Abstract: The article analyzes the issues of cooperation between internal affairs bodies and educational and sports organizations in preventing the spread of criminal subculture in the combat sports environment and countering the involvement of youth in organized crime groups. The study substantiates the necessity of transitioning to an early prevention model rather than relying solely on repressive and reactive measures, conducting criminological screening of coaches, and maintaining regular psychological monitoring of youth. The author has developed practical proposals and recommendations for implementing a three-stage interagency cooperation system and executing joint social projects aimed at the social adaptation of troubled teenagers.

Keywords: sports environment, criminal subculture, internal affairs bodies, educational organizations, sports institutions, interagency cooperation, combat sports, organized crime groups, early prevention, destructive behavior, criminological filter, psychological monitoring, youth crime, criminal ideology, social projects.

Bugungi kun tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sportdagi jinoyatchilikning oldini olish uchun faqat hukumat organlarining jazolash va voqeadan keyin chora ko'rishi yetarli emas. Bu muammoni hal qilish uchun turli sohalar va jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishi zarur. Ayniqsa, kriminogen omillarga oqibat yuzaga kelgandan so'nggi munosabat o'rniga, ularga barvaqt



profilaktik ta'sir ko'rsatish modelini joriy etishda IIOlarining ta'lim muassasalari hamda sport tashkilotlari bilan tizimli idoralararo hamkorligi fundamental ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, jangovar sport turlari (boks, kurash, MMA va boshqa aralash jang san'atlari) o'zining spesifikasiga ko'ra yoshlarda jismoniy kuch, iroda, ruhiy chidamlilik va muayyan darajada tajavuzkorlikni shakllantiradi. Agarda ushbu jismoniy ko'nikmalar sog'lom ma'naviy mafkura va vatanparvarlik ruhi bilan uyg'unlashtirilmasa, bunday sportchilar osonlik bilan kriminal submadaniyat ta'siriga tushib, uyushgan jinoiy guruhlarining (keyingi o'rinlarda-UJG) kuch ishlatuvchi jangovar qanotini shakllantirish uchun asosiy yollash ob'yektiga aylanib qoladi. Shu sababli, kriminal dunyo yetakchilari o'zlarining xufiyona e'tiborini aynan shu turdagi sport maktablari va xususiy jang klublariga qaratadilar.

Bunday sharoitda ta'lim tashkilotlari (ixtisoslashtirilgan sport maktablari, olimpiya zaxiralari kollejlari) hamda sport tashkilotlari federatsiyalar, xususiy klublar va to'garaklar kriminal submadaniyatning tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi birinchi darajali ijtimoiy filtr vazifasini o'tashi lozim. IIOlarining tezkor va profilaktika bo'linmalari esa ushbu tashkilotlar bilan doimiy axborot almashinuvini yo'lga qo'yishi, xavf guruhiga kiruvchi sportchilarni va kriminal muhitga moyil murabbiylarni barvaqt aniqlashning qo'shma mexanizmlarini ishlab chiqishi ob'ektiv zaruratdir.

Shu bois, jangovar sport muhitida jinoiy mafkuraning tarqalishiga qarshi kurashish jarayonida IIOlarining ta'lim va sport tashkilotlari bilan hamkorligining bugungi kundagi amaliy holatini o'rganish, idoralararo axborot almashinuvi mexanizmlaridagi mavjud huquqiy va tashkiliy muammolarni aniqlash hamda ushbu hamkorlikni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo'llarini ilmiy-tanqidiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



Jangovar sport turlari bilan shug'ullanuvchi yoshlarning UJGlari tarkibiga kirib qolishining barvaqt oldini olish, eng avvalo, sport muhitida sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni yaratishni talab etadi. Bu borada IIO faqatgina o'z kuchi bilan natijaga erisha olmaydi; mazkur jarayonda ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari bilan tizimli hamkorlik mexanizmlarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Olimlar N.N. Rostova va O.N. Yefremovalar o'z tadqiqotlarida zamonaviy jamiyatda, shu jumladan, yoshlar o'rtasida destruktiv buzg'unchi ko'rinishlarning ko'payish tendensiyasi o'sib borayotganini ta'kidlab, bunday xavflarni barvaqt aniqlash uchun katta guruhlarini tezkor monitoring qilish imkonini beruvchi vositalarni ishlab chiqish zarurligini asoslab berganlar [1]. Ularning fikricha, sport va ta'lim muhitida jinoiy mafkuraning oldini olish uchun, birinchi navbatda, pedagog xodimlar va murabbiylar uchun yoshlar orasida potensial destruktiv xulq-atvorni aniqlash bo'yicha maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqilishi kerak.

Shunga ko'ra, IIONing tezkor va profilaktika tuzilmalari sport murabbiylari hamda psixologlar bilan muntazam axborot almashinuvini yo'lga qo'yishi lozim. Bu yosh sportchilardagi agressiya va kriminal submadaniyatga moyillik ko'rinishlarini erta aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kriminal submadaniyatga qarshi kurashishda jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishning o'ziga xos o'rni mavjud. Olim E.R.Gatiatullina ta'kidlaganidek, sport targ'iboti o'smirlarda turli yot va buzg'unchi submadaniyatlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi[2]. Olimning haqli e'tirofiga ko'ra, sport sohasidagi davlat boshqaruvi jismoniy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini ochib berishi, millatni sog'lomlashtirish va bolalar jinoyatchiligi kabi negativ hodisalarga qarshi kurashishdagi rolini ta'minlashi kerak.

Ayniqsa, jangovar sport turlarida o'quv-mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishda IIO va sport tashkilotlarining hamkorligidagi asosiy qoida shundan



iborat bo'lishi kerakki, sportda shafqatsizlik va zo'ravonlik kultini, shuningdek, inson qadr-qimmatini kamsitishni targ'ib qilishga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi shart. Bu esa murabbiylarning nafaqat sport usullarini o'rgatishini, balki yosh sportchilarda kuchni faqatgina qonuniy va insonparvarlik maqsadlarida ishlatish immunitetini shakllantirishini taqozo etadi.

Amaliy hamkorlik mexanizmlarini real hayotga tatbiq etishning eng samarali usullaridan biri bu, idoralararo ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdir. Tadqiqotchilar Z.D. Poyarkova va O.P.Naumenkolarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, profilaktik ishlarning eng yuqori samaradorligiga davlat va jamoat tashkilotlarining sa'y-harakatlarini loyihaviy faoliyat doirasida birlashtirish ya'ni konsolidatsiya qilish orqali erishiladi [3].

Olimlar misol tariqasida keltirgan "Sport kuchi" loyihasi doirasida bolalar va o'smirlarni tizimli sportga jalb qilish, ularni kriminal submadaniyatga qarshi tura olgan va o'z yurtining munosib fuqarosi bo'lib yetishgan sportchilarning ijobiy misollarida tarbiyalash amaliyoti o'zining yuksak natijasini ko'rsatgan.

Ta'lim muassasalari, sport tashkilotlari va IIO o'rtasidagi idoralararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu, o'smirlar muhitiga kriminal submadaniyatlarning, xususan, penitensiar romantikasini targ'ib qiluvchi destruktiv g'oyalarning singib kirishiga barvaqt to'sqinlik qilishdan iboratdir.

Tadqiqotchi V.N. Smyslova o'z ilmiy izlanishlarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, zamonaviy sharoitda "AUE" (arestantskiy uklad yedin) kabi kriminal submadaniyatlar nafaqat ko'cha muhitiga, balki umumta'lim maktablari va mehribonlik uylarigacha kirib bormoqda [4]. Mazkur hodisa, o'z navbatida, yoshlarning uyushgan jinoiy guruhlar tarkibiga jalb etilishi jarayonida o'ziga xos "tranzit kanali" yoki "ko'prik" vazifasini bajarmoqda.

Shu bilan birga, kriminolog A.S. Rybakovanning ilmiy xulosalariga tayangan holda qayd etish joizki, yoshlarning bu kabi buzg'unchi va



antijamoiy tuzilmalarga qo'shib qolishining negizida bir qator kriminogen determinantlar yotadi. Ular qatoriga o'smirlar bo'sh vaqtining ijtimoiy foydali tarzda tashkil etilmaganligi, oilaviy disfunksiyalar hamda malakali psixologik yordamning yetishmasligi kabi omillar kiradi [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ta'lim muassasalarining psixologik xizmatlari hamda IIONing profilaktika va tezkor bo'linmalari o'rtasida uzluksiz idoralararo axborot almashinuvini yo'lga qo'yish ob'ektiv zaruratdir. Aynan mazkur mexanizm orqali xavf guruhiga mansub bo'lgan, nutqida kriminal jargonlarni qo'llovchi va tajovuzkor xulq-atvorga moyil o'smirlarni barvaqt aniqlash va ular bilan maqsadli profilaktik ishlarni olib borish tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlash mumkin

Sog'lom turmush tarzi va sportni maqsadli targ'ib qilish o'smirlar ongida kriminal submadaniyatlarga nisbatan barqaror tanqidiy munosabatni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Olim L.B. Shoroxova tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov tadqiqotlari natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'smirlar tranzitiv ya'ni o'tish yosh davrida o'zlarini kattalardek his qilish hamda tengdoshlarining referent guruhida ijtimoiy maqomini mustahkamlash maqsadida jinoiy tuzilmalarga xos bo'lgan tashqi atributikalarni, xususan, tajavuzkor xulq-atvor, o'ziga xos kiyinish uslubi va kriminal slengni o'zlashtirishga yuqori darajada moyil bo'ladilar [6].

Biroq, tizimli olib borilgan jismoniy tarbiya va sport targ'iboti orqali o'smirlarda destruktiv va kriminal guruhlariga qo'shilish motivini yo'qqa chiqarish hamda ularda mazkur nosog'lom submadaniyatlarga nisbatan qat'iy salbiy pozitsiyani shakllantirish mumkinligi ilmiy-amaliy jihatdan isbotlangan. Buning uchun ta'lim muassasalari pedagoglari va sport klublari murabbiylari yoshlar muhitida paydo bo'layotgan yangi nosog'lom submadaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan to'liq xabardor bo'lishi, ularning dastlabki belgilarini barvaqt aniqlay olishi hamda maqsadli tushuntirish-profilaktika ishlarini amalga oshirishi talab etiladi.



Shu bilan birga, o'smirlarning o'zini o'zi identifikatsiya qilish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga bo'lgan tabiiy psixoemotsional ehtiyojlarini ijtimoiy foydali o'zanga to'g'ri yo'naltirish muhim profilaktik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar L.S. Lukyanchenko va N.M. Kostixinalar haqli ravishda ta'kidlaganidek, zamonaviy sport hodisasining o'zi yoshlar uchun o'ziga xos muqobil, sog'lom submadaniyat (ijtimoiy makon) vazifasini bajara oladi [7]. Xususan, agarda jangovar va ekstremal sport yo'nalishlari yoshlarning qiziqishlari hamda yosh xususiyatlariga mos ravishda, qat'iy huquqiy asosda va tizimli nazorat ostida tashkil etilsa, o'smirlar marginal ko'cha to'dalari va kriminal tuzilmalarga emas, balki rasmiy sport klublariga intiladilar.

Ta'lim va sport tashkilotlarining IIO bilan profilaktik hamkorligidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bu, o'smirlarning jangovar sport turlariga bo'lgan qiziqish motivlarini to'g'ri va ijtimoiy foydali o'zanga yo'naltirishdir. Olim R.A.Abdurasulovning o'smirlar o'rtasida Sharq yakkakurashlari va boks mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish motivlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning aksariyati (37-90 foizi) sport zaliga, eng avvalo, "kuchli, sog'lom va baquvvat bo'lish" hamda "o'zi va do'stlarini himoya qilish" maqsadida keladilar [8]. Shuningdek, ularni sport kurashining keskinligi, jangovar holatning rang-barangligi va mardonavor jang qilish jarayonining o'zi kuchli jalb etadi.

Mazkur psixologik omillarni kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilsak, agarda o'smirlardagi ushbu tabiiy jismoniy kuchga intilish, ustunlikka erishish va o'zini himoya qilish ehtiyoji sport murabbiylari tomonidan sog'lom sport raqobati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanmasa, bunday yoshlar o'z kuchini ko'cha muhitida, kriminal guruhlar tarkibida sinab ko'rishga osongina moyil bo'lib qoladilar. Shu bois, murabbiylar yoshlardagi g'alabaga bo'lgan tajovuzkor intilishni faqatgina sport doirasida ushlab turishga va jismoniy kuchni adolatli maqsadlarda ishlatishga o'rgatishlari lozim.



Bundan tashqari, o'smirlardagi xulqiy og'ishlarning ya'ni deviant xulq-atvorning barvaqt oldini olishda ta'lim muassasalari, oila, mahalla va ichki ishlar organlarining uzviy hamkorligi markaziy o'rin tutadi. Tadqiqotchi D.Sh. Temirov ta'kidlaganidek, o'quvchi-yoshlar orasida har xil tartibbuzarliklar va salbiy illatlarning oldini olishda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullarini xususan, sport to'garaklarini joriy etish hamda bu jarayonda jamoatchilik nazorati va ota-onalar ishtirokini kuchaytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega [9].

Shuningdek, G.Q. To'laganovanning ilmiy xulosalariga ko'ra, o'smirlik davriga xos xulqiy og'ishlar belgilarini barvaqt aniqlash va ularni maqsadli psixologik korreksiya qilish jinoyatchilikning oldini olishda yuqori samara beradi [10]. Bu shuni anglatadiki, ta'lim va sport muassasalari psixologlari hamda IIONing huquqbuzarliklar profilaktikasi xususan, voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'linmalari xodimlari o'zaro tezkor axborot almashingan holda, xavf guruhiga kiruvchi, tajovuzkorlikka va ko'cha bezorligiga moyil yosh sportchilar bilan tizimli psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirishlari ob'ektiv zarurat hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv yosh sportchilarning kriminal muhitga emas, balki sog'lom jamiyatga ijtimoiy moslashuvini kafolatlaydi.

Tadqiqotchi olimlarning ilmiy yondashuvlarini umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, jangovar sport turlari bilan shug'ullanuvchi yoshlarni UJGlar ta'siridan himoya qilish tuzilmaviy darajadagi uch bosqichli kompleks hamkorlik mexanizmini joriy etishni taqozo etadi:

birinchi tashkiliy-profilaktik bosqich: Ta'lim muassasalarida o'smirlarning bo'sh vaqtini tizimli ravishda sportga yo'naltirish hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish mexanizmini yaratish.

Ikkinchi mafkuraviy-psixologik bosqich: Sport klublari murabbiylari va ta'lim muassasalari pedagoglarining integratsiyalashuvi orqali yoshlar ongida



jinoiy romantikaga qarshi barqaror psixologik immunitet hamda destruktiv submadaniyatlarga nisbatan tanqidiy fikrlashni shakllantirish.

Uchinchi tezkor-huquqiy bosqich: IIO tezkor va profilaktika xizmatlarining ta'lim hamda sport tashkilotlari ma'muriyati bilan uzluksiz idoralararo axborot almashinuvini yo'lga qo'yishi, shuningdek, kriminal unsurlarni sport majmualari va ta'lim ob'ektlaridan mutlaqo cheklash.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi qabul qilinayotgan zamonaviy qarorlar talablaridan kelib chiqib, ushbu xodimlar uchun yangi avlod o'quv-tayyorgarlik dasturlari (modullari) ishlab chiqilishi zarur. Ushbu dasturlar doirasida xodimlarga yoshlar orasida paydo bo'layotgan yangi destruktiv submadaniyatlarning tashqi belgilarini barvaqt aniqlash, UJG rekruterlarining psixologik manipulyatsiya usullariga qarshi turish va sport muhitidagi kriminogen omillarni baholash bo'yicha zamonaviy metodikalar o'rgatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, jangovar sport sohasida kriminal mafkuraga qarshi samarali kurashish uchun IIO, ta'lim va sport tashkilotlari hamkorligi uchta asosiy yo'nalishga tayanishi kerak: murabbiylarni kriminologik tekshiruvlardan o'tkazish, yoshlar ruhiyatini muntazam kuzatib borish hamda ilgari tarbiyasi og'ir bo'lgan o'smirlarning ijobiy sportchi sifatidagi muvaffaqiyatini ko'rsatib beruvchi qo'shma ijtimoiy loyihalarni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Ростова Н. Н., Ефремова О. Н. Индикаторы потенциально деструктивного поведения в молодежных субкультурах // *Вестник общественных и гуманитарных наук.* – 2022. – Т. 3. – № 1. – С. 27-32.

2.Гатиатуллина Э. Р. Пропаганда физической культуры и спорта в формировании критического отношения подростков к определенным субкультурам // *Ростовский научный журнал.* – 2017. – № 5. – С. 201-205.



3.Пояркова З. Д., Науменко О. П. Проектная деятельность как эффективная форма организации профилактической работы с несовершеннолетними // *Записки Забайкальского отделения Русского географического общества*. Сборник статей конференции. – Чита, 2021. – С. 68-75.

4.Смыслова В. Н. Вовлечение молодежи в социальную практику и активную общественную деятельность как одно из направлений противодействия проявлениям молодежного экстремизма в условиях радикализации и роста протестной активности // *Вопросы российского и международного права*. – 2017. – Т. 7. – № 4А. – С. 283-297.

5.Рыбакова А. С. Предупреждение хулиганства среди молодежи в Сибирском федеральном округе // *Академический юридический журнал*. – 2022. – Т. 23. – № 2(88). – С. 145-151.

6.Шорохова Л. Б. Пропаганда физической культуры и спорта в формировании критического отношения подростков к определенным субкультурам // *Физическая культура: воспитание, образование, тренировка*. – 2013. – № 1. – С. 7-10.

7.Лукьянченко Л. С., Костикина Н. М. Молодежные субкультуры в современном спорте // *Сибирский государственный университет физической культуры и спорта*. – Омск, 2017. – С. 154-160.

8.Abdurasulov R. A., Baxromov O. B. Yosh sportchilarning sport mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish motivlari // *Psixologiya. Ilmiy jurnal*. – 2019. – № 4. – В. 57-61.

9.Temirov D. Sh. Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni // *Psixologiya. Ilmiy jurnal*. – 2021. – № 3. – В. 129-132.

10. To'laganova G. Q. Xulqiy og'ishlar simptomokompleksida psixokorreksion ishlar samaradorligi // *Psixologiya. Ilmiy jurnal*. – 2021. – № 3. – В. 132-13